

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 18-iyun №11 (1573)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

XALQARO ANDOZALAR ASOSIDA

Mazkur kurslarning ekologiya, mehnat muhofazasi va energiya menejmenti tizimlarini takomillashtirishda ahamiyat katta.

2 ➔

TAFAKKURNI BOYITADI

Bugungi tezkor axborot asrida kitob, gazeta va jurnal mutolaasi insonning tafakkurini boyituvchi muhim omil bo'lib qolmoqda.

3 ➔

SINOVLAR INSONNI TOBLAYDI

Ba'zan taqdir insonni ikki yo'l chorrahasiga olib keladi: birinchisi insonning o'zi istagan yo'l, ikkinchisi esa hayot majbur qilgan yo'l.

4 ➔

XALQARO FORUM – IQTISODIY YUKSALISH OMILI

17-iyun kuni poytaxtimizda beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Qisqa vaqt ichida nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining eng nufuzli iqtisodiy platformalaridan biriga aylangan mazkur forum bugungi kunda mamlakatning xalqaro investitsiya maydonidagi o'rni tobora mustahkamlanayotganini yaqqol namoyon etdi.



2022-yilda ilk bor tashkil etilgan forumda 56 mamlakatdan mingdan ortiq xorijiy mehmon ishtirok etgan bo'lsa, bu yilgi anjumanda dunyoning 100 ta davlatidan qariyb 4 ming nafar xorijiy mehmon qatnashdi. Bu esa O'zbekistonga bo'lgan ishonch va qiziqish yil sayin ortib borayotganining amaliy ifodasidir.

Forumning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab, mamlakat iqtisodiyotida kuzatilayotgan ijobiy o'zgarishlarga alohida to'xtaldi. Davlatimiz rahbari nufuzli xalqaro iqtisodiy reytinglarda O'zbekiston 14 pog'ona yuqorilaganini, joriy yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 180 milliard dollardan oshishi kutilayotganini ta'kidladi.

Tadbirda Albaniya Prezidenti, shuningdek, Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston hukumat rahbarlarining shaxsan ishtirok etgani forumning xalqaro siyosiy va iqtisodiy maydondagi ahamiyatini yanada oshirdi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bunday yuqori darajadagi ishtirok Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga xalqaro hamjamiyatning yuksak ishonchi ifodasidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni liberallashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Xususan, yurtimiz iqtisodiyotiga jalb qilingan 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyaning 123 milliard dollari aynan keyingi

besh yil hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonning ulkan tabiiy va mineral resurslari mamlakat sanoat taraqqiyoti uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda davlatimiz xomashyo eksport qilishdan yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tizimiga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Toshkent va Samarqandda tashkil etilayotgan "Kelajak metallari" texnoparklari, mashinasozlik, elektrotexnika hamda farmatsevtika sohasida amalga oshirilayotgan 20 milliard dollarlik loyihalar sanoatning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Eng muhimi, ushbu iqtisodiy islohotlar inson qadrini ulug'lash, aholi turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan. Yangi korxonalar, zamonaviy infratuzilma, shifoxonalar, maktablar va uy-joy qurilishi dasturlari aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Forumda mamlakatimizning yirik sanoat korxonalari ham faol ishtirok etmoqda. Jumladan, "O'zmetkombinat" AJ vakillari xorijiy investorlar va kompaniyalar bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi. Xususan, Ozarbayjonning yirik metallurgiya korxonalaridan biri — "Baku Steel Company" kompaniyasi rahbariyati bilan muzokaralar olib borildi. Uchrashuvda metallurgiya sohasida hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi mamlakatning investitsiya salohiyatini dunyo hamjamiyatiga keng namoyon etish, xalqaro biznes va moliya doiralari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot o'rnatish, yangi loyihalarni shakllantirish hamda iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

Bugun yakunlanadigan mazkur forum O'zbekistonni Markaziy Osiyoning investitsiya va innovatsiya markaziga aylantirish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash yo'lidagi eng muhim xalqaro maydonlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ismat DIYOROV.

Davlatimiz mustaqilligining 35 yilligi oldidan

Mustaqillik xalqimizning eng ulug', eng aziz boyligi. O'tgan 35 yil davomida O'zbekiston taraqqiyotning mustahkam yo'lini bosib o'tdi, mamlakatimizda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi, shahar va qishloqlarimiz tanib bo'lmaz darajada o'zgardi.

KELAJAKNING MUSTAHKAM POYDEVORI

Davlatimiz mustaqilligining 35 yilligini munosib kutib olish arafasida barcha sohalarda bo'lgani kabi sanoat tarmoqlarida ham obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari yanada jadal tus olmoqda.

"Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!" degan bosh g'oya yurtimizning har bir go'shasida amaliy ishlar, ezgu tashabbuslar va bunyodkorlik harakatlarida o'z aksini topmoqda. Ana shunday xayrli ishlar markazida turgan korxonalardan biri "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatidir.

So'nggi vaqtlarda kombinat hududlarini obod qilish, ekologik muhitni yaxshilash va yashil maydonlarni kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bugun "O'zmetkombinat" nafaqat mamlakatimiz metallurgiya sanoatining yetakchi korxonasi, balki ko'rkamligi, ozodaligi va fayzli muhiti bilan ajralib turadigan maskanlardan biriga aylandi.

(Davomi 2-sahifada).

KELAJAKNING MUSTAHKAM POYDEVORI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Kombinat hududlarida amalga oshirilgan obodonlashtirish ishlari ko'lami haqiqatan ham tahsinga sazovor. Ilgari oddiy ishlab chiqarish maydonlari bo'lgan hududlarda bugun yashillikka burkangan manzaralar ko'zga tashlanadi. Yuzlab manzarali va mevali daraxtlar, turli xil dekorativ butalar ekildi. Hududlar zamonaviy landshaft talablari asosida shakllantirilib, ko'kalamzorlashtirish ishlari izchil davom ettirildi.

Ayniqsa, rang-barang gullar bilan bezatilgan gulzorlar kombinatga o'zgacha husn bag'ishlamogda. Bahordan kech kuzgacha hududlarda ochilib turgan turfa rangdagi gullar nafaqat mehnat ahlining kayfiyatini ko'tarmogda, balki mehmonlarda ham iliq taassurot uyg'otmogda.

Kombinat hududlaridagi yo'laklar, xizmat binolari atrofi va dam olish maskanlari ham to'liq tartibga keltirildi. Ozodalik va tartib-intizomni ta'minlashga qaratilgan ishlar muntazam davom ettirilmogda.

Bugun "O'zmetkombinat" hududiga tashrif buyurgan har qanday kishi bu yerdagi o'zgarishlarni ko'rib, yurtimizda kechayotgan ulkan bunyodkorlik jarayonlarining amaldagi samarasi-



ni his etadi. Ko'rkam va ozoda hududlar, yashillikka burkangan maydonlar, gullarga bezangan xiyo-bonlar mehnat ahlining Vatan taraqqiyoti yo'lidagi sa'y-harakatlari bilan uyg'unlashib ketgan.

Mustaqilligimizning 35 yilligi arafasida amalga oshirilgan ana shunday ezgu ishlar mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi va yurtimiz ravnaqi yo'lidagi bunyodkorlik harakatlarining uzviy

davomidir. Zero, Yagona Vatan va yagona xalq bo'lib birlashgan xalqning qudrati bilan har qanday ezgu maqsadlarga erishish mumkin. Obod va farovon yurt, yashil va go'zal makonlar esa ana shu buyuk kelajakning mustahkam poydevoridir.

Diyor ISMATOV.



XALQARO ANDOZALAR ASOSIDA

MALAKALI KADRLAR TAYYORLANMOQDA



"O'zmetkombinat" Ajda xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda integratsiyalashgan menejment tizimlarini samarali joriy etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

Bekobod maxsus o'quv markazida o'tkazilgan mazkur o'quv mashg'ulotlari "ISO 9001:2015, ISO 14001:2015, ISO 45001:2018 va ISO 50001:2018 xalqaro andozalari talablariga muvofiq integratsiyalashgan menejment tizimi menejeri va ichki auditori" mavzusiga bag'ishlandi.

Kurslarda kombinatning turli tarkibiy bo'linmalaridan jalb etilgan xodimlar ishtirok etib, xalqaro standartlar talablari, menejment tizimlarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari hamda ichki audit jarayonlarini samarali tashkil etish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini yanada boyitdilar.

Ta'kidlash joizki, mazkur malaka oshirish kurslari korxonada sifat, ekologiya, mehnat muhofazasi va energiya menejmenti tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro standartlar talablariga muvofiqlikni ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Bu kabi o'quv dasturlari "O'zmetkombinat" Ajda zamonaviy boshqaruv tamoyillarini keng joriy etish, yuqori malakali mutaxassislar zahirasi shakllantirish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'lida muhim qadam bo'lmoqda.

Gulmira TOSHMATOVA, sanoat xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i.

BOLALAR OROMGOHLARIDA

YOZGI MAVSUM BOSHLANDI

Metallurglar farzandlari uchun oromgohda yozgi dam olish mavsumi boshlandi. Bekobod shahridagi Sirdaryo sohilining so'lim va xushmanzara go'shasida joylashgan "Sohil" bolalar oromgohi 15-iyun kuni ilk dam oluvchilarini qabul qildi.

Oromgohda bolalarning sog'lom va mazmunli hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Dam olish dasturi doirasida bolajonlar murabbiylar rahbarligida suzish mashg'ulotlarida ishtirok etmoqdalar, sport musobaqalari va turli sog'lomlashtiruvchi o'yinlarda o'z kuch va mahoratlarini sinab ko'rmoqdalar.

Shuningdek, oromgohda san'at, musiqa va hunarmandchilik to'garaklari ham faoliyat ko'rsatadi.

Tabiat qo'ynidagi "Sohil" oromgohida bu yozda ham metallurglar farzandlarining maroqli va mazmunli dam olishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan.

Oromgohga yo'llanmaning to'liq qiymati 2 million 650 ming so'mni tashkil etadi. Kombinat xodimlarining farzandlari uchun esa imtiyozli narx – 530 ming so'm etib belgilangan.

Oromgoh ma'muriyatining ma'lum qilishicha, yo'llanmalar uchun qo'shimcha chegirmalar nazarda tutilmagan. Bir oiladan bir nechta farzand oromgohga yuborilgan taqdirda ham to'lov har bir bola uchun belgilangan yagona tartib asosida amalga oshiriladi.

Sanjar JASUROV.



27-IYUN – MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

Aholisi eng farovon hayot kechirayotgan davlatlardan sanalgan Norvegiya, Yaponiya va Finlyandiya kabi davlatlarda gazeta o'qish madaniyati yuksak darajada shakllangan. Masalan, Finlyandiyaning eng yirik kundalik nashri – "Helsingin Sanomat" har kuni yuz sahifada 400 ming nusxaga yaqin chop etiladi. Umuman olganda, bu mamlakatda har bir kishi hissasiga o'rta-cha to'rttadan gazeta va jurnal to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun aytish mumkinki, mamlakatimizda har o'n nafar kishiga bittadan ham kam gazeta yoki jurnal to'g'ri keladi. Bu esa mutolaa madaniyatini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kitob, gazeta va jurnallarni muntazam o'qiydigan jamiyatlarda nafaqat iqtisodiy farovonlik, balki ma'naviy yuksalish, ilm-fan va madaniyat sohalarida ham yuqori natijalar kuzatiladi. Shu bois yurtimizda aholining mutolaa madaniyatini oshirishga qaratilgan qator qaror va dasturlar qabul qilinmoqda.

Afsuski, kombinatimizda ham bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Korxona faoliyatidagi murakkab yillar davomida nashrlarimiz adadi sezilarli darajada qisqardi. Uch yil avval har biri 1,5 ming nusxada chiqarilgan "Metallurg minbari" va "Za metall" gazetalari keyinchalik oyiga bir marta 500 nusxada chop etildi, shtatlar qisqartirildi. Vaqt o'tishi bilan qog'oz shaklidagi nashrlar to'xtatilib, elektron formatga o'tildi. Shuningdek, kombinat hududida faoliyat ko'rsatgan kitob do'koni hamda kasaba uyushmasining boy kutubxonasi esa yopilib ketdi.

Bugun ijtimoiy tarmoqlar axborot tarqatish-

MUTOLAA TAFAKKURNI BOYITADI

Bugungi tezkor axborot asrida kitob, gazeta va jurnal mutolaasi insonning bilim va tafakkurini boyituvchi muhim omil bo'lib qolmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasi ham bu haqiqatni yana bir bor tasdiqlaydi.



da yetakchi o'ringa chiqdi. Ular gazeta, jurnal, kitob va hatto televideniyaning ma'lum darajadagi o'rnini egallaganday ko'rinmoqda. Biroq tarix shuni ko'rsatadiki, yangi vosita paydo bo'lishi avvalgilari butunlay yo'qolib ketishini anglatmaydi. Masalan, kino san'ati yuzaga kelganda teatr o'z ahamiyatini yo'qotadi, degan qarashlar bo'lgan. Ammo bu fikr tasdig'ini topmadi. Har bir axborot va madaniyat vositasining jamiyat hayo-

tida o'z o'rnini bor.

Ommaviy axborot vositalari bugun ham insonlarni axborot bilan ta'minlash, jamoatchilik fikrini shakllantirish, ma'naviyat, ma'rifatni yuksaltirish, dunyoqarashni boyitishda muhim vazifani bajar-moqda. Shu ma'no-da mutolaaga bo'lgan qiziqishni tiklash, kitobxonlik va matbuotxonlik madaniyatini rivojlantirish barchamizning umumiy vazifamizdir.

Fursatdan foydalanib, kelayotgan 27-iyun – Matbuot va ommaviy

axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha fidoyilarini samimiy tabriklaymiz. Barcha jurnalistlar, muharrirlar va ijod ahliga mustahkam sog'liq, baxt va yangi ijodiy yutuqlar tilaymiz.

"Metallurg minbari" gazetasi tahririyati.

SUD ZALIDAN

ISH JOYIDA CHIQQAN JANJAL

Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida ikki qarindosh o'rtasida yuzaga kelgan janjal bilan bog'liq ma'muriy ish ko'rib chiqildi. Sud qaroriga ko'ra, "O'zmetkombinat" AJda ishlaydigan teplovoz mashinisti Zokir Sobirov hamda qorovul Jo'ra Bekmurodov (huquqbuzarlar ism-familiyalari o'zgartirilgan) ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Suddaaniqlanishicha, voqea 2026-yil 20-fevral kuni "O'zmetkombinat" AJ hududida sodir bo'lgan. Tushlik vaqtida ikki qarindosh o'rtasida avvaldan mavjud bo'lgan oilaviy kelishmovchilik sabab janjal kelib chiqqan. Ular jamoat joyida o'zaro haqoratli so'zlar ishlatib, baqirchaqir qilgan. Atrofdagilar ularni ajratib qo'ygan.

Biroq nizo shu bilan tugamagan. Oradan bir necha soat o'tib, teplovozni tekshirish jarayonida ular o'rtasida yana janjal chiqqan.

Kechki payt esa mojaro yanada keskin tus olgan. Z. Sobirov J. Bekmurodovga tegishli "Nexia" avtomashinasining orqa g'ildiragi va boshqa qismlariga qasddan zarar yetkazgan. Keyinchalik ular o'rtasida yana tortishuv yuzaga kelib, Jo'ra Bekmurodov Zokir Sobirovga bir marta zarba bergan. Shundan so'ng Sobirov raqibiga tegishli telefonni yerga urib, yaroqsiz holatga keltirgan.

Sud Zokir Sobirov, Jo'ra



Bekmurodovning harakatlarini O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining tegishli moddalariga bilan to'g'ri malakalangan deb topdi.

Sud qaroriga ko'ra, Zokir Sobirovga 3 sutka ma'muriy qamoq hamda 2 million 60 ming so'm jarima jazosi tayinlandi. Jo'ra Bekmurodovga esa 3 sutka ma'muriy qamoq jazosi qo'llanildi. Shuningdek, Zokir Sobirovdan jabrlanuvchi foydasiga 2 million 320 ming so'm moddiy zarar undirishi belgilandi.

Bu kabi holatlar har qanday kelishmovchilikni qonun doirasida, bosiqlik bilan hal etish zarurligini yana bir bor ko'rsatadi. Zero, jamoat tartibini buzish va tajovuzkor xatti-harakatlar nafaqat ma'muriy javobgarlikka, balki insonlar o'rtasidagi munosabatlarning izdan chiqishiga ham sabab bo'ladi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar
sudi sudyasi.

Yoz fasli kirib kelishi bilan havo harorati ko'tarilib, suv havzalarida cho'miluvchilar ko'payadi. Biroq bu davrda suv bilan bog'liq baxtsiz hodisalar ham ko'payishi kuzatiladi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, cho'kish va turli jarohatlanish holatlarining asosiy qismi xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmaslik oqibatida sodir bo'lmoqda.

CHO'MILISHDA EHTIYOT BO'LING!

Metallurqlar va ularning oila a'zolari uchun yozgi dam olishning xavfsiz o'tishi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, suv havzalarida quyidagi tavsiyalarga qat'iy amal qilish zarur.

Avvalo, faqat maxsus jihozlangan va rasman ruxsat etilgan havzalarda cho'milish tavsiya etiladi. Kanallar, daryolar, suv omborlari hamda oqimi tez bo'lgan hududlarda suvga tushish hayot uchun xavf tug'diradi.

Mutaxassislar kunning eng issiq vaqti – soat 13:00 dan 15:00 gacha bo'lgan davrda cho'milishni tavsiya etmaydilar. Ertalab soat 10:00–12:00 va kechqurun 17:00–19:00 oralig'i suvda cho'milish uchun eng qulay vaqt hisoblanadi. Shuningdek, ovqatlananganidan keyin kamida 1–1,5 soat o'tgach suvga tushish maqsadga muvofiq.

Bolalar xavfsizligiga alohida e'tibor qaratish zarur. Cho'kish bilan bog'liq holatlarning katta qismi voyaga yetmaganlarning kattalar nazoratisiz qolishi oqibatida yuz beradi. Shu sababli bolalarni suv havzalari yaqinida hech qachon yolg'iz qoldirmaslik kerak.

Hurmatli metallurqlar! O'zimiz va yaqinlarimizning xavfsizligini ta'minlash har birimizning burchimizdir. Oddiy ehtiyotkorlik va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish orqali yozgi dam olishni mazmunli va beg'am o'tkazish mumkin.

Javlon UMRZOQOV,
"O'zmetkombinat" AJ obyektlarida Favqulodda
vaziyatlar bo'limi katta inspektori.



IBRAT OLGANGA IBRATDIR DUNYO

Hayotning eng og'ir sinovlari insonni yo'qotish uchun emas, balki uning irodasini toblash uchun beriladi. Ba'zan taqdir insonni ikki yo'l chorrahasiga olib keladi: biri – yurak istagan yo'l, ikkinchisi – hayot majbur qilgan yo'l.

Sarvar oilasi bag'rida yashab, O'zbekiston metallurgiya kombinatida sevgan kasbi bilan shug'ullanardi.

Ammo 2024-yil kombinat uchun og'ir keldi. Ishlab chiqarish pasaydi, daromadlar qisqardi. Muammolar deyarli har bir metallurg xonadoniga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Sarvar ham og'ir tanlov oldida qoldi. Qalbi kombinatdan ketishni istamasdi. Ammo ro'zg'ordagi muammolar, oilasi oldidagi mas'uliyat uni boshqa qaror qabul qilishga majbur qildi.

Shu tariqa u tirikchilik ilinjida Rossiyaga ketdi. Begona yurtda mehnat qilib yurgan bo'lsada kombinat haqidagi har bir xabarni kuzatib bordi.

Oradan vaqt o'tib, korxona taqdiriga davlat darajasida e'tibor qaratildi. Yurt rahbariyati Bekobod metallurglari taqdiriga befarq emasligini amalda ko'rsatdi. Muammolarni hal etish bo'yicha aniq choralar belgilandi, yangi rahbariyat ish boshladi, islohotlar amalga oshirildi.

Natijada kombinatda hayot qayta jonlandi.

SINOVLAR INSONNI TOBLAYDI

Ishlab chiqarish tiklana boshladi, jamoada ishonch va ruh ko'tarildi. Eng muhimi, odamlarning ertangi kunga bo'lgan umidi qaytdi. Bu xabarlar Sarvarga ham yetib bordi.

U Vataniga qaytdi.

Kombinat hududiga qadam qo'ygan kuni o'zini uzoq safardan qaytgan inson emas, balki uyiga qaytgan insonday his qildi. Tajribali mutaxassis

sifatida yana jamoa safiga qabul qilindi.

Har kuni ishga kelar ekan, ortda qolgan qiyin kunlarni eslaydi. Ammo bu xotiralar unga bir haqiqatni eslatadi: agar xalq dardiga quloq tutiladigan, mehnat ahlini qadrlaydigan davlat bo'lsa, eng og'ir muammolar ham yechim topadi.

Inson hayotining tayanchi mehnat bo'lsa, uning qanoti ishonchdir.

Diyor ZULFIQOROV.



TA'SIRLI VA KICHIK HIKOYALAR

OBOD OROL

Qadimiy rivoyatda podshoh o'n yil hukmronlik qilgach, kimsasiz orolga tashlab ketilishi aytiladi. Bu taqdirdan xavotirga tushgan shohga dono vazir shunday maslahat beradi: "Hozirdan o'sha orolni obod qilishga kirishing. Shunda u siz uchun azob maskani emas, baxt manziliga aylanadi".

Bu rivoyat har bir inson uchun ibratdir. Chunki har kim o'z hayotining podshohi, aql va iymoni esa uning eng yaqin maslahatchisidir.

Inson bu dunyoda qanday yashasa, ertangi manzilini ham shunga yarasha bunyod etadi. Yaxshilik, halol mehnat va ezgu amallar bilan yashagan odam o'z "orolini" obod qiladi.



XALQ TABOBATIDAN

* Qatiq organizmni zararli moddalardan yaxshi tozalaydi. Tarkibida kaliy, kalsiy, fosfor ko'p bo'lib, bu suyaklar, tish va yurakka foydalidir.

* Har qanday shaftolini to'q qoringa yeyish, organizm uchun faqat zarar keltiradi.

* Sirka badanning qayerida bo'lmasin chiqib



SINOV

Ota farzandiga hayot haqida muhim saboq beradi. U uchta qozonda sabzi, tuxum va qahva donlarini qaynatadi. Qattiq sabzi qaynoq suvda yumshaydi, nozik tuxum esa aksincha qattiqlashadi. Qahva donlari esa suvning o'zini o'zgartirib, xushbo'y ichimlikka aylantiradi.

Bu misol insonlar hayotiga ham tegishli. Ba'zi odamlar qiyinchiliklar oldida irodasini yo'qotadi, boshqalari esa mustahkam va kuchli bo'lib boradi. Eng yaxshi yo'l esa qahva donlariga o'xshab, muammolarga moslashish bilan cheklanmay, vaziyatni yaxshilik tomonga o'zgartira olishdir.

kelayotgan shishni qaytaradi.

* Olma yurakka quvvat bag'ishlab, shodlik keltiradi, oshqozonni tozalaydi.

* Behi ko'krak illatlarini daf qiladi, oshqozonga quvvat berib, ishtahani oshiradi.

* Sarimsoq – oshqozon va buyrak og'rig'i bor kishilarga naf qiladi, shuningdek, bo'g'in va tish og'rig'iga hamda yo'talga foyda qiladi.

HIKMATLAR
SANDIG'IDAN

* Bulut e'tiqodsiz bo'lganidan, shamol uni xohlagan tomoniga olib ketadi.

* Jonzotlarni o'ldirishdan saqlaning. Chunki odam o'ldirish jonivorlarni o'ldirishdan boshlangan.

* O'tgan kun haqidagi: "Men uni qanday o'tkazdim, nimalar qildimu, nimalarga ulgura olmadim?" degan savollarga javob topilmaguncha ko'zlaringiz uyquga ketmasin.

* Aql kirishi uchun aql tishi chiqishini kutib o'tirish shart emas.

LATIFALAR

– Nega sen doim o'zing bilan o'zing gaplashasan?

– Aqli odam bilan gaplashishni yaxshi ko'raman.

– Tong saharda soatning qo'ng'irog'i menga xuddi o'q otilgandek ta'sir qiladi.

– Shunda sakrab turib ketsang kerak?

– Yo'q! Xuddi halok bo'lgandek yotaveraman.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir
Ismadiyor MAMATQULOV.

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparatida joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron shaklda
oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida terilib,
sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.